

**IJTIMOY MUNOSABATLARNI IFODALOVCHI PARALINGVISTIK  
VOSITALARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI**

**Kurbanov Muzaffar Abdumatalibovich**

*Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)*

**Nabiyeva Diyora Baxodir qiz**

*lingvistika (ingliz tili) yo`nalishi magistranti*

[diyao6021995@gmail.com](mailto:diyao6021995@gmail.com)

---

**ARTICLE INFO.**

---

**Annotatsiya**

---

**Kalit so`zlar:** ijtimoiy munosabat, paralingvistika, paralingvistik vositalar, fonatsion, kinesika, grafik, noverbal.

*Mazkur maqola muloqotda ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi paralingvistik vositalarning pragmatik tahliliga bag`shlangan bo`lib, noverbal muloqotini ifodalovchi vositalarning axborotni uzatish yoki almashishning keng doirasi va usullari ko`rib chiqilgan.*

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Ijtimoiy munosabatlar insonlarning bir-biri bilan o`zaro munosabatlarida paydo bo`ladigan o`zaro bog`liqlikning turli shakllari tushuniladi. Kommunikantlararo va boshqa turdag'i munosabatlardan ajralib turadigan ijtimoiy munosabatlarning o`ziga xos xususiyati shundaki, insonlarda “men”, ya`ni muayyan shaxsning mohiyatini to`liq aks ettiruvchi emas, balki birgalikdagi “ijtimoiy” hodisa sifatida paydo bo`ladi.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarning asosiy xususiyati – jamiyat a`zolari o`z ijtimoiy roli va maqomlarini ro`yobga chiqarishga imkon beradigan odamlar (guruqlar) o`rtasida barqaror munosabatlarni o`rnatishdir. Ijtimoiy munosabatlarga misol sifatida kommunikantning o`z oila a`zolari, hamkasblari, do`stlari va xizmat yuzasidan boshqa insonlar bilan muloqotda bo`lish jarayononi kirlitsa bo`ladi. Mana shu muloqotlar jarayonida kishilar e`tibor bermaydigan ayrim holatlar mavjudki, ular muloqotga ijtimoiy munosabatlarni ifodalanishida alohida o`ziga xos axborot uzatish vazifasini o`tab beradi. Bunday muloqot vositalariga inson gavda harakatlari, yuz ifodalari, ovoz ohangi, maxsus tovush signallari, kodlangan belgilari va muloqot masofalarini kiritish mumkin bo`lib, inson noverbal muloqotini ifodalovchi bu kabi vositalar axborotni uzatish yoki almashishning keng doirasi va usullariga ega.

Zamonaviy ilm-fan, texnologiyaning rivojlanishi, bugungi globallashuv jarayonlar fikr va ma`lumotlarni almashishda verbal vositalardan ko`ra nonverbal vositalardan foydalanishning afzalliklarini,

ayniqsa, masofaviy muloqotda o'z ustunligini namoyish etmoqda. Shu boisdan verbal va noverbal vositalar o'zaro qo'llanish shartlariga ko'ra muloqotda axborot, pragmatic va ekspressiv vazifalarini bajaradi.

Pragmatika – yunonchada “ish”, “harakat” degan ma'nolarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funksionalligini o'rganuvchi semiotika va tilshunoslikning yangi sohalaridan biri hisoblanadi. Pragmatikaning rivojlanishi Ch.Pirs, U.Djems, D.Dpyun, CH.Morris kabi taniqli faylasuflarning nomi bilan bog'liqidir. Ularning ishlarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funktsionalligi xususidagi g'oyalar o'rtaqa tashlanadi. Ayniqsa, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanib, sintaksis, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatib o'tilgan. Pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi .

Zamonaviy ensiklopedik lug'atlarda paralingvistik vositalarning 3 ta ko'rinishi qayd etilgan:

- a) fonatsion (temp, ovoz balandligi, tovushlarning talaffuzi, suhbatning tezligi, turli xil to'xtalishlar);
- b) kinesika (imo-ishora, mimika, gavda qismini turli pozalarda tutish);
- c) grafik (harflar o'rniga turli shartli belgilardan foydalanish yoki unga qo'shimcha qilish, husnixat va shrift o'lchamidagi o'zgarishlar) .

Ma'lumki, muloqotda verbal so'zlarni har doim bir me'yorda, bir xil intonatsiyada talaffuz etilmaydi. Odatta axborot olish uchun intonatsiya yoki savoldan foydalaniladi. Nutqiy aloqa bilan birga qo'llaniladigan qo'shimcha vositalar muloqot jarayonida verbal vositalarga nisbatan ham ahamiyati, ba'zan muhimroq bo'lishi mumkin. Masalan, tinglovchiga “vaqting bormi?” deb murojaat qilganda, “albatta”, degan javobni olish mumkin. Lekin, uning qo'l soatiga qayta-qayta qarayotganligi uning vaqtini ziqligidan dalolat beradi. Bundan tashqari muloqotda ovoz toni ham katta ahamiyatga ega. Birgina “ahvollaringiz yaxshimi?” degan jumlaning yig'lamsirab, kulib, yo'tal aralash, nafasi siqib yoki tishlarni g'ijirlatib aytishini tasavvur qilishning o'ziyoq bu nazariy fikrni asoslab beradi. Kishini sinchkovlik bilan kuzatish natijasida uning harakatlari va so'zlarining ma'nosini orasidagi farqni bilib olish qiyin emas.

Rus olimasi T.Vlasova verbal va noverbal vositalarni tahlil qilarkan, gavda harakatlari, ko'z nigohi, ovoz ohangi va tembr kabi noverbal vositalar insonlar ongiga ta'sir o'tkazishga verbal vositalarga nisbatan ancha kuchli va samarali ekanligi to'g'risida xulosalar bergen .

Shuning uchun ham biz odatiy, tabiiy deb idrok qiladigan faoliyat bilan bog'liq bo'lган muloqotda ham ko'plab sirlar va o'ziga xos nozik tomonlari borki, ularning barchasi kommunikantdan muloqotdagagi bilimdonlikni va o'zgalarga e'tiborliroq bo'lishni talab qiladi.

J.Chestara o'zining “Delovoy etiket” nomli asarida muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan va aniq ma'no va mohiyat kasb etadigan noverbal harakatlarga quyidagicha tarif bergen:

1) agar u qo'l barmoqlarini qisayotgan bo'lsa, demak, u nimadandir juda xavotir, o'zini himoyasiz his qilmoqda;

2) suhbatdoshning qo'llarini musht qilib turishi undagi vajohat belgisi, lekin u bu holatni, badjahllikni nazorat qilmoqchi;

3) odam ketayotganda, ikki qo'li cho'ntakda, boshi egik bo'lsa, demak uning ruhi tushgan, xafa, depressiya holatida bo'ladi;

4) agar suhbatdosh ko'z oynagini burun ustiga tushirib, tepasidan qarasa, bu uning sizdan ko'proq ma'lumotlarni kutayotganligi belgisidir;

5) odam oyoqlarini bir-birining ustiga qo'yib, oyog'ini yengil tebratayotgan bo'lsa, demak, u zerikmoqda.

**Mimika**, yuz ifodalari pragmatic nuqtai nazardan tahlil qilsak, har bir insonning yuzi uning xarakter jihatlarini ifodalaydi. Aynan inson yuziga qarab qalbida nimalar kechayotganini ilg'ab olish mumkin.

Insonlarning yuz ifodalari tahlilida quyidagi ko'rsatkichlarga: suhbat paytida yuzdagi ifodaning o'zgarishlari, yuz rangining o'zgarishi, ko'z, nigohdagi o'zgarishlar, og'iz mimikasi va suhbatdoshni tinglash ko'nikmalariga e'tibor berish lozim.

Muloqotning yana bir jihat borki, unda suhbat paytida suhbatdoshni qanchalik yaqin yo'latish yoki yo'latmaslik ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Jamiyatda shaxsiy maydon to'g'risida ma'lum tasavvurlar mavjud bo'lib, suhbat uchun qulay, komfort masofa hisoblanadi. Rus psixolog A.Melnikova noverbal vositalar shaklini o'rganib,

suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa muloqot jarayonida katta rol o'yнaydi va bu masofalarning buzilishi muloqotda ham noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkin, deb ta'kidlagan. Muloqot jarayonida kommunikantlarning muloqot maydoni ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Kuzatuvlarga ko'ra, muloqot maydonining interpritasiyasi quyidagicha kuzatiladi:

a) ommaviy zona – 2 metrdan 7 metrgacha, bunda kishilar rasmiy yoki o'ta jiddiy mavzuda gaplashiladi. Mazkur muloqot jarayonida kommunikantlar o'rtasida yaqinlik his qilinmaydi;

b) ijtimoiy zona – 0,5 metrdan 2 metrgacha, bu zonada ma'lum bir masalani hal etishda gaplashish kuzatiladi. Masalan: auditoriyada o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi suhbat;

c) shaxsiy zona – 20 santimetrdan 50 santimetrgacha. Mazkur muloqotda yaqinlik his etiladi va ular o'zlarini qiziqtirgan masalalar haqida gaplashishi kuzatiladi;

d) intim (yaqin) zona – 0 santimetrdan 15 santimetrgacha. Odatda insonlar shivirlab gaplashish, ma'lum bir sirni aytish holatlarida ifodalanadi. Bunda yaqin kishilar o'rtasida samimiy yaqinlik hislari mavjudligi kuzatiladi.

Shunday qilib, noverbal muloqotda suhbatdoshlarning ijtimoiy maydoni ham katta ahamiyatga ega bo'lib, kommunikantlarning o'zaro yaqinligi haqidagi axborotni ifodalaydi. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, bir-birlari bilan yaqin zonada gaplashadilar, erkaklar esa odatda ommaviy masofani tanlashadi.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi paralingvistik vositalar – bu har qanday belgi shaklida taqdim etilgan nutq va til vositalarining yordamisiz shaxslar o'rtasida ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan muloqotning bir ko'rinishidir. Og'zaki bo'lman aloqa vositalari: yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar nutqiy muloqotni to'ldirish va almashtirish, kommunikantlarning hissiy holatini noverbal etkazish funksiyalarini bajaradi. Shu boisdan og'zaki bo'lman signallarni to'g'ri talqin qilish samarali muloqotning eng muhim shartidir. Imo-ishoralar va tana harakatlarining pragmatic jihatlari, qo'llash shartlarini bilish nafaqat so'zlovchini yaxshiroq tushunishga, balki masala bo'yicha gapirishdan oldin eshitganlari unga qanday ta'sir qilishini taxmin qilish imkonini ham beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Abdumatalibovich K. M. The Lingua-Pragmatic and Methodological Aspects of Nonverbal Means. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2021.
2. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XU1. - М., 1985.
3. Nurmonov A. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. –T.: O'zbek tili va adabiyoti, 2001.
4. Ярцева В. Большой энциклопедический словарь. 2-е издание. –М.: "Большая Российская энциклопедия", 1998.
5. Власова Т. Повышение коммуникативной эффективности судебного дискурса с помощью невербальных средств воздействия//Филологические науки // Вопросы теории и практики, 2010.